

CHO'LPON EPIK ASARLARIDA JADIDONA QARASHLAR IFODASI

Norqobilova Oydin

Toshkent davlat o'zbek tili adabiyoti

universiteti 1-kurs magistranti

E-mail: oydin.norqobilova4@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada XX asr boshlaridagi jadidchilik harakati va uning o'zbek adabiyotidagi yetuk namoyandasi Cho'lpon ijodi o'rtasidagi g'oyaviy-badiiy bog'liqlik tahlil qilinadi. Adibning epik asarlari, xususan, "Kecha va kunduz" romani misolida jadidona qarashlar — ma'rifatparvarlik, milliy ong, shaxs va ayol erkinligi, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurash g'oyalari ochib beriladi. Maqolada Cho'lponning badiiy tafakkuri orqali jamiyatni uyg'otish, inson qadr-qimmatini yuksaltirishga qaratilgan estetik va falsafiy qarashlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi.

Kalit so'zlar: Cho'lpon, jadidchilik, epik asar, "Kecha va kunduz", ma'rifat, erkinlik, milliy ong.

ВЫРАЖЕНИЕ БЛАГОРОДНЫХ ВЗГЛЯДОВ В ЭПИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ЧУЛПАНА.

Аннотация: В данной статье анализируется идеологическая и художественная связь между движением джадидов начала XX века и творчеством его выдающегося представителя в узбекской литературе, Чолпона. Эпические произведения писателя, в частности роман "Ночь и день", раскрывают идеи джадидского мировоззрения – просвещение, национальное самосознание, свободу личности и женщин, а также борьбу с социальной несправедливостью. В статье научно и теоретически освещаются эстетические и философские взгляды Чолпона, направленные на пробуждение общества и повышение человеческого достоинства посредством художественной мысли.

Ключевые слова: Чолпон, джадидизм, эпическое произведение, "Ночь и день", просвещение, свобода, национальное самосознание.

THE EXPRESSION OF NOBLE VIEWS IN THE EPIC WORKS OF CHULPAN

Abstract: this article analyzes the ideological and artistic connection between the Jadid movement of the early 20th century and the work of its outstanding representative in Uzbek literature, Cholpon. The epic works of the writer, in particular, the novel "Night and Day", reveal the ideas of Jadid views - enlightenment, national consciousness, freedom of the individual and women, and the fight against social injustice. The article scientifically and theoretically illuminates Cholpon's aesthetic and

philosophical views aimed at awakening society and raising human dignity through artistic thought.

Keywords: Cholpon, Jadidism, epic work, “Night and Day”, enlightenment, freedom, national consciousness.

Kirish. XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yuz bergan keskin o‘zgarishlar adabiyotda yangi tafakkur tarzini shakllantirdi. Jadidchilik harakati ana shu yangilanishlarning mafkuraviy asosiga aylandi. Jadid adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri Cho‘lpon (Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Yunusov) bo‘lib, u o‘zining epik asarlari orqali millat taqdiri, erkinlik, ma‘rifat va inson qadrigimmati masalalarini badiiy yuksaklikda ifodaladi. Ushbu maqolada Cho‘lponning epik asarlarida jadidona qarashlarning ifodasi tahlil qilinadi.

Tahlil va natijalar. Jadidchilik harakati asosida xalqni jaholatdan qutqarish, zamonaviy bilimlarni egallash, milliy ong va mustaqillik g‘oyalarini shakllantirish maqsadi yotar edi. Cho‘lpon bu g‘oyalarni nafaqat publitsistik va lirik asarlarida, balki epik janrdagi ijodida ham chuqur yoritdi. U jamiyatdagi adolatsizlik, mustamlakachilik zulmi, ayol erkinligi va shaxs ozodligi masalalarini badiiy obrazlar orqali ochib berdi.

Cho‘lponning eng yirik epik asari — “Kecha va kunduz” romani jadidona dunyoqarashning yorqin namunasi hisoblanadi. Roman nomining o‘ziyoq ramziy ma‘no kasb etib, “kecha” — jaholat va zulmatni, “kunduz” esa — ma‘rifat va uyg‘onishni anglatadi. Asarda eski tuzum tarafdorlari bilan yangicha fikrlovchi, ma‘rifatparvar qahramonlar o‘rtasidagi ziddiyat markaziy o‘rinni egallaydi.

Zebi obrazida ayolning jamiyatdagi o‘rni, uning erkinlikka intilishi tasvirlanadi. Jadidchilikning muhim masalalaridan biri bo‘lgan ayol ozodligi romanda fojiali, ammo ta’sirchan tarzda yoritiladi. Cho‘lpon ayolni faqat oila doirasida emas, balki jamiyat taraqqiyotining faol subyekti sifatida ko‘rsatadi.

Cho‘lpon epik asarlarida chor mustamlakachiligi davridagi ijtimoiy tengsizlik, mahalliy xalqning huquqsizligi ochiq tanqid qilinadi. U zo‘ravonlik va mansabparastlikni keskin fosh etib, xalqni uyg‘onishga da’vat etadi. Jadidona qarashlarning asosiy belgilaridan biri bo‘lgan milliy o‘zlikni anglash va erkinlik g‘oyasi asarlarda botiniy, ammo kuchli ruhda ifodalanadi.

Cho‘lpon jadidlarni tasvirlaganda to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘z tili bilan xarakteristika bermasdan bu vazifani asardan kishilarga yuklaydi. Cho‘lponning qahramonlari jadidlarni maqtab, ko‘klarga ko‘taradi. Miryoqub Finlandiyaga savdo uchun boruvchi jadidni tubandagicha xarakterlaydi: “Mana men endi “jadidni” ko‘rib o‘tiribman. Erta kech gapga quloq solaman; qulog‘imni uning og‘zidan uzib olmayman... bir yomon joyini ko‘rganim yo‘q. Gaplari hammasi ma‘qul. Birovlarning mol-mulkiga chang solaturg‘onga o‘xshamaydi” (204 bet). Cho‘lpon shu ta’rif bilan chegaralanmaydi. Fohishaxonadan olib qochilgan Mariya (Maryam) ham jadidlarga xayrixoh. Mariya

ongsiz, madaniyatsiz kishilarni jadidlar qanday qilib “tarbiyalaganiga qoyil” qoladi. “Jakob (Miryoqub) ertadan kechgacha o’sha bilan (jadid bilan demoqchi) gaplashadi. Men hech narsa anglamayman, o’z tillarida gazetalar o’qushadi. Yigit ruscha gazetalar o’qub tushuntiradi. Bir tomondan olganda bu yaxshi; Jakobning fikri ochiladi. Odam bo’ladi. Madaniyatlashadi” (200 bet). Jadidlar xuddi xalq manfaati uchun, Turkistonning milliy Ozodligi uchun kurashuvchi qahramonlar, xalqning ko’zini ochuvchi kishilar sifatida berilgan. “Jadidning so’zlari meni qo’zg’atib qo’ydi; uning so’zlarini men ham boshqalarga xuddi o’shaning o’ziday chiroylik va ta’sirli qilib gapirsam deyman odamlarning ko’zini ochsam deyman...” Romanda tarixiy faktlar qastdan, bilaturib buzulib ko’rsatilgan. Shaxsiy boyishlari yo’lida kurashgan, shu maqsadlari yo’lida har qanday ifloslikdan tortinmagan xalq dushmanlari va vatan xoinlari-jadidlarni xalqning haqiqiy o’g’illari sifatida tasvirlash tarixni qalbakilashtirishga urinishdan boshqa narsa emas. Romanda milliy ruhiyat ijtimoiy muhit orqali aks ettiriladi. Jamiyatda adolatsizlik, jaholat va zo’ravonlik xalq hayotining ajralmas qismiga aylangan. Qahramonlar taqdiri orqali muallif o’zbek jamiyatining ezilgan, ammo ich-ichidan uyg’onishga intilayotgan holatini ko’rsatadi. Qahramonlar ruhiy olamida milliylik yaqqol seziladi. Zebi, Akbarali singari obrazlar orqali o’zbek ayolining taqdiri, sabr-toqati, ichki isyoni va ozodlikka intilishi ochib beriladi. Zebi obrazi milliy ruhiyatning eng ta’sirchan ifodasidir: u an’anaviy muhit qurboni bo’lsa-da, uning qalbida adolat va erkinlikka bo’lgan yashirin ehtiyoj yashaydi. Bu esa millatning umumiy ruhiy holatini ifodalaydi. Cho’lpon uchun inson — eng oliy qadriyat. Uning epik asarlarida qahramonlar ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari orqali shaxs erkinligi masalasi ochib beriladi. Jadidchilik ruhiga xos ravishda yozuvchi insonni taqdirga tan beruvchi emas, balki o’z hayoti uchun mas’ul, fikrlovchi shaxs sifatida talqin etadi.

Xulosa. Cho’lponning epik asarlarida jadidona qarashlar chuqur badiiy va falsafiy mazmun bilan ifodalangan. “Kecha va kunduz” romani va boshqa epik namunalarda ma’rifat, erkinlik, milliy ong va inson qadr-qimmati asosiy g’oya sifatida namoyon bo’ladi. Cho’lpon jadid adabiyotining badiiy imkoniyatlarini kengaytirib, o’zbek romanchiligi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo’shdi. Uning epik ijodi bugungi kunda ham o’z dolzarbligini yo’qotmagan ma’naviy meros sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. История всемирной литературы. - Т.: - Б. 32
2. Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Т.: Шарк, 2004. Б.359.
3. Cho’lpon A. - Toshkent: G’.G’.nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1993-yil.
4. Cho’lpon A. “Yurt qayg’usi haqida bebaho asarlar”, - Toshkent, 2022-yil. B.165.
5. www.ziyouz.com
6. www. arxiv. uz